

FUQAROLIK SUDLARIDA SUD BUYRUG'I TARTIBIDA ISH KO'RISH

Iskandarov Bekzodjon Maxmudovich

FIB Ishtixon tumanlararo sudining sudyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10729027>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida buyruq tartibida ish ko'rish tushunchasi, huquqiy asoslari, ahamiyati va protsessual jihatlarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, buyruq tartibida ish yuritishda yuzaga keladigan amaliyotdagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, odil sudlov, fuqarolik protsessi, taraflar, buyruq tartibida ish yuritish, sug'urta shartnomasi.

PROCEEDINGS IN CIVIL COURTS UNDER COURT ORDERS

Abstract. In this article, the concept, legal basis, importance and procedural aspects of civil courts are analyzed from a scientific and practical point of view. Also, suggestions and comments aimed at eliminating the practical problems and shortcomings arising in the order procedure were put forward.

Key words: judicial authority, justice, civil procedure, parties, proceedings in order of order, insurance contract.

ПРОИЗВОДСТВО В ГРАЖДАНСКИХ СУДАХ ПО ПОСТАНОВЛЕНИЯМ СУДА

Аннотация. В данной статье с научной и практической точки зрения анализируются понятие, правовые основы, значение и процессуальные аспекты приказного производства в гражданских судах. Также были высказаны предложения и замечания, направленные на устранение практических проблем и недостатков, возникающих в порядке приказа.

Ключевые слова: судебная власть, правосудие, гражданский процесс, стороны, приказное производство, договор страхования.

KIRISH

Sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi ariza yozma shaklda va axborot tizimi orqali elektron hujjat shaklida beriladi. Bunda fuqarolik protsessual qonun talabiga ko'ra sud buyrug'i chiqarish haqidagi arizaning shakli va mazmuniga qo'yilgan talablar da'vo arizaga (FPK 189-moddasi) qo'yilgan talablarga o'xshash ekanligini nazarda tutish lozim. Shu bilan birgalikda buyruq tartibida ish yuritish undiruvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning

soddalashtirilgan usuli ekanligidan kelib chiqib, sudlar sud buyrug‘i berish haqida arizani qabul qilishda undiruvchining vakili tomonidan berilgan arizada vakilning nomi va manzili ko‘rsatilishi shart emasligini nazarda tutishlari lozim. Undiruvchi tomonidan vakilga sud buyrug‘ini olish va ijroga qaratish vakolati berilgan holatlar bundan mustasno.

Ta’kidlash lozimki, har bir inson o‘z huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so‘rab sudga shikoyat qilishi mumkin. Sud orqali himoyalani huquqi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash kafolatlaridan biridir. Sud orqali himoya qilish davlat tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanib, odil sudlovni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasiga ko‘ra, har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega. Shuningdek, Konstitutsiyaning 55-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bundan tashqari, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga ko‘ra, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda oxirgi yillarda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan sudhuquq islohotlari, eng avvalo, sudlarning nufuzini oshirish, fuqarolarga o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qila olishlari uchun keng sharoitlar yaratish xamda shunga mutanosib ravishda sudlarning ish yuritish tartibini imkon darajasida soddalashtirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, fuqarolik protsessiga oid ishlarni ko‘rishni takomillashtirish, ishlarning sifatli va qonuniy ko‘rilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish zaruratini qo‘yadi. Bizga ma’lumki, fuqarolik sud ishlarini yuritishning quyidagi turlari mavjud:

- da’vo tartibdagi ishlar;
- buyruq tartibida ko‘riladigan ishlar;
- alohida tartibda yuritiladigan ishlar;
- hakamlilik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar;

- chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlilik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar.

Mazkur sanab o'tilgan sud ishlarini yuritishning har biri alohida xususiyatlariga ko'ra farqlanadi va belgilangan tartibda ko'riladi. Sud buyrug'i nizosiz talablar bo'yicha sud muhokamasi o'tkazmasdan berilgan sud hujjati hisoblanadi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning alohida turi hisoblangan buyruq tartibida ish yuritish – fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli hisoblanadi. Shu o'rinda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli sifatida ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sud buyrug'i chiqarish yo'li bilan hal qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida e'tirof etishimiz joiz hisoblanadi. Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan ushbu huquqiy institutining ahamiyati shundan iboratki, ilgari undiruvchining qarzdordan pul mablag'larini undirish yoki ko'char mulkni nizosiz tarzda qarzdordan talab qilib olish to'g'risidagi arizalari bo'yicha ish taraflar sud majlisiga chaqirilgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa, sud buyrug'i instituti joriy etilgach, mazkur toifadagi arizalar bo'yicha sudya ishni sud majlisida ko'rmasdan va taraflarni sud muhokamasiga chaqirmasdan, sud buyrug'i chiqarish vakolatiga ega bo'ldi. 2018-yil 1-aprelga qadar amalda bo'lgan Fuqarolik protsessual kodeksida 5 talab yuzasidan sud buyrug'i chiqarilgan bo'lsa, 2018-yil 22-yanvarda yangi tahrirda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksida 8 talab yuzasidan, 2019-yil 22-oktyabrda kiritilgan o'zgartirishlarga asosan jami 9 talab yuzasidan sud buyrug'i chiqarilishi belgilangan. Yangi tahrirda qabul qilingan FPKda so'ngi yillarda asosan da'vo tartibida ko'rilgan 3 ta nizo turi yuzasidan ishlarni fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiligini oldini olgan holda, aslida ushbu ishlar nizosiz bo'lganligi sababli, sud buyrug'i chiqarish orqali ya'ni taraflar ishtirokisiz ko'rib chiqilib sud xujjati chiqarilishi belgilandi. Bu esa fuqarolarga arizalarini tezkor va sifatli ko'rib chiqilish imkoniyatini yaratdi.

Aytish mumkinki, sud ishlarini yuritishning buyruq tartibida yuritish to'g'risidagi ishlar ham ko'pchilikni tashkil etib, nizosiz talablar bo'yicha ishlarning tez va soddalashtirilgan tartibda ko'rilishiga olib keladi. Yangi qo'shilgan talablar yuzasidan so'ngi yillardagi statistik hisobotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risidagi talablar yuzasidan Respublika bo'yicha ko'plab sud buyrug'i

chiqarilgan. Bu esa ushbu talablar yuzasidan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar yildan yilga ko'payib borayotganligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda fuqarolik sudlarida yildan yilga ish hajmi ko'payib bormoqda. Bu nizolarni ko'rishda ish sifatini pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli ishlarni ko'rishda taraflar ishtirokisiz ko'riladigan talablar doirasini kengaytirish zamon talabi bo'lmoqda. Buyruq tartibida ish yuritishdagi talablar yuzasidan xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, xususan Germaniya Federativ Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida avtomobil sug'urtasi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar sud buyrug'i tarzida chiqarilishi belgilangan. Fikrimizcha, mazkur normani O'zbekiston Respublikasini amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksiga ham kiritma maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asosan, sug'urta shartnomasi bo'lib, unga ko'ra sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchilarga ularning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga ushbu sug'urta hodisasi oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi. Demak mazkur normaga asosan shartnomada sug'urta puli undirilishi uchun hech qanday nizo mavjud emas va bunday holatda ishlarni buyruq tartibida ko'rilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqoridagilarga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, hozir fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda sudyalarning ish yuklamalarini kamaytirish, sudlarda ishlarni soddalashgan tartibda hal etish tizimini takomillashtirish maqsadida fuqarolik protsessual qonunchiligida sud buyrug'i chiqarish asoslari ro'yxatini kengaytirish lozim deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son).
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021 y., 03/21/716/0877-son).
3. Xabibullaev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O'quv qo'llanma. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. –Toshkent, TDYU nashriyoti, 2018. -300 b.
4. Xabibullaev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O'quv qo'llanma. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. –Toshkent, TDYU nashriyoti, 2018. -300 b.
5. https://stat.sud.uz/file/2021/fib/fib_2020.pdf.
6. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-155-son 21.04.2008. <https://lex.uz>.